**“TASDIQLAYMAN”**
**“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti rektori**
**________ Z.Muqimov**
**“___” _____________ 2023 y.**

## “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2023-yilda ta’lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash bo‘yicha YO’L XARITASI

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Institutning ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘yishda hududning xususiyatini inobatga olish va ish beruvchilar ishtirokini yetarli darajada ta’minlash. | 1. Viloyat hududidagi va ishlab chiqarish korxonalaridagi muammolar bazasini yaratish.<br>2. Muammolar bazasidan olingan masalalar bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish, shu orqali OTM va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida xo‘jalik shartnomalari tuzish.<br>3. OTM va kadr iste’molchilari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini amalda tizimli yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish.<br>4. Qarshi shahrida barpo etilgan IT-parkda talabalar amaliyotini tashkil etish va OTMda tashkil etilgan IT-markaz, inkubatsiya markazi a’zolari bilan hamkorlikda innovatsion loyihalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.<br>5. Asosiy kadr iste’molchilari va ish beruvchilar bilan doimiy “Kar’yera kuni” tadbirlarini tashkil etish. | 2023-yil davomida | Institut rektori, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari |
| 2. | Kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish. | 1. OTMlar bilan hamkorlikda buyurtmachilar talablari va xorijiy tajriba asosida “Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim berish (competence-based-learning)” va talabalarning ehtiyojini to‘liq qondirishga yo‘naltirilgan (student-centered-learning) o‘quv metodikasini yangilashga qaratilgan malaka talablari, o‘quv reja va fan sillabus (dastur)larini kasbiy standartlari asosida takomillashtirish hamda belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta’minlash;<br>2. O‘quv reja va dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmunini takomillashtirishga jalb etiladigan professor-o‘qituvchilarni | 2023 yil may-avgust | Institut rektori, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari, o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari |

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| | | moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borish mexanizmlarini ishlab chiqish. | 2023 yildan | |
| 3. | O'quv jarayonlarini kredit-modul tizimi asosida tashkil etilishi sifatini oshirish | 1. Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma va mexanizmlar kredit tizimiga moslashtirish;<br>2. Mustaqil ta'lim bo'yicha talaba yuklamasini bajarish mexanizmlari ishlab chiqish;<br>3. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'quv rejalarida belgilangan kreditlarni yig'ib borish mexanizmlarini fan sillabuslarida aks ettirish; | 2023 yil davomida doimiy | O'quv ishlari bo'yicha prorektor, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari |
| 4. | Institutning qabul kvotalarini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta shakllantirish. | 2023-2024-o'quv yili qabul kvotasida belgilangan miqdordan ziyod talabalarni o'qishga qabul qilishda OTM moddiy-texnik bazasini, professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati va sonini hamda binolar sig'imini inobatga olgan holda tashkil etish. | 2023-yil yanvar | Institut rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, tegishli korxona va tashkilot rahbarlari, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, marketing va talabalar amaliyoti bo'lim boshlig'i |
| 5. | Institut professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarini "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda "Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash" jamg'armasi mablag'lari hisobidan xorijiy davlatlarning yetakchi oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalariga maqsadli stajirovkaga yuborish choralarini ko'rish. | 1. Xorijiy davlatlarning yetakchi oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalari ro'yxatini aniqlash hamda hamkorlik shartnomalarini tuzish.<br>2. Turli jamg'arma mablag'lari hisobiga xorijiy davlatlarning yetakchi oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalariga maqsadli stajirovka o'tashga yuboriladigan professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar ro'yxatini shakllantirish hamda kelishuv asosida xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | 2023-yil yanvar-mart<br><br>2023-yil davomida | Institut rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, |
| 6. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 Farmoni ijrosi yuzasidan Institutni xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic | Yo'l xaritasini ishlab chiqish, bunda quyidagilarni e'tiborga olish:<br>1. Institutni xalqaro reyting agentliklarining nufuzli universitetlari ro'yxatiga kiritishga tayyorlash bo'yicha faoliyat olib boruvchi Ishchi guruh tarkibini tuzish.<br>2. Xalqaro reyting agentliklaridan ta'lim muassasasi faoliyati to'g'risidagi dastlabki monitoring ma'lumotlarini olish va tahlil qilish. | 2023 yil fevral | Institut rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i |

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| | Ranking of World Universities) reytingining nufuzli Institut ro'yxatiga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish. | 3. Institutning faoliyat ko'rsatkichlarini xalqaro reyting agentliklari talablariga muvofiqlashtirish.<br>4. Ta'lim jarayoniga xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish, hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.<br>5. Yuqori impakt faktorga ega Scopus, Nature, Web of Science jurnallarida maqolalar chop etishni professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan muntazam chop etishni tashkil qilish. Ushbu jurnallarda maqola chiqargan xodimlarni moddiy rag'barlantirish.<br>6. Oliy ta'lim muassasasining ish beruvchilar o'rtasidagi (employer reputation) obro'sini oshirish.<br>7. Xalqaro reyting agentliklariga ta'lim muassasasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etib borish. | Yil davomida | |
| 7. | Institut professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati va ilmiy faoliyati natijadorligini oshirish. | 1. Institutda faoliyat olib borayotgan «Xirsh» indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini oshirish.<br>2. Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish, ilmiy loyiha va konferensiyalarga keng jalb etish.<br>3. «Scopus», «ScienceDirect», «Web of Science» va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jurnallardagi maqolalar sonini oshirish.<br>4. Doktorant va ilmiy izlanuvchilarga ilmiy ish olib borishlari uchun sharoit yaratish. | 2023 yil davomida doimiy | Institut rektori, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy bo'lim boshlig'i |
| 8. | Institutda tegishli mutaxassislik fanlari bo'yicha xorijiy tilda o'qitish amaliyotini yo'lga qo'yish | 1. Yangi o'quv yilidan mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o'qitiladigan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarni belgilash.<br>2. Belgilangan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash.<br>3. Belgilangan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli fanlarni xorijiy tilda o'qitishni tashkil etish. | 2023 yil may<br>2023 yil avgust<br>2023-2024 o'quv yili | O'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i |
| 9. | Xorijiy tillar o'qituvchilarining 2022-2023 o'quv yili boshlangunga qadar C1 darajadagi xalqaro yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatini olishlarini ta'minlash | Hamkor nodavlat o'quv markazlar bilan hamkorlikda xorijiy til fani o'qituvchilari uchun kurslar tashkil etish, natijalar samaradorligini muntazam nazorat qilish va Xorijiy tillar o'qituvchilarining C1 darajadagi xalqaro yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatini olishlarini ta'minlash. | 2023 yil avgust | O'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i |

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Bitiruvchi kurs talabalaridan magistraturaga hujjat topshiradigan talabgorlarni B2 darajadagi xalqaro yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatini olishlarini ta'minlash | 1. Bitiruvchi kurs talabalaridan magistraturaga hujjat topshiradigan talabgorlarni aniqlash.<br>2. Hamkor nodavlat o'quv markazlar bilan hamkorlikda bitiruvchi kurs talabalaridan magistratura hujjat topshiradigan talabgorlarni uchun kurslar tashkil etish, natijalar samaradorligini muntazam nazorat qilish. | 2023 yil may<br><br>2023 yil may-iyul | O'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i |
| 11. | Ishlab chiqarish korxonalari muammolarini hal qilishda ta'lim-fan-ishlab chiqarish hamda xorijdagi yetakchi soha ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan uzoq muddatdagi hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion yechimlar topish. | 1. Ishlab chiqarish korxonalaridagi muammolar bazasini yaratish.<br>2. Muammolar bazasidan olingan masalalar bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, shu orqali Institut va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida xo'jalik shartnomalari tuzish.<br>3. Ishlab chiqarish korxona va Institutda tashkil etilgan IT-markaz, inkubatsiya markazi a'zolari bilan hamkorlikda innovatsion loyihalar tayyorlashni kuchaytirish. | 2023 yil davomida | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy bo'lim Boshlig'i, RTT bo'limi boshlig'i |
| 12. | Institutda tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish. | 1. Tyutorlar faoliyatini tartibga solish, ularning o'quv, ilmiy va tarbiyaviy sohadagi ishlarini tizimli tashkil etishga qaratilgan o'quv-seminar va seminar-treninglar tashkil etish.<br>2. Tyutorlarning ish faoliyati uchun "Tyutorlik" qilingan ishlari hisobotini fakultetning ilmiy kengashlarida tahlil qilib borish. | 2023 yil davomida | Yoshlar bilan ishlash ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Yoshlar bilan ishlash ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'lim boshlig'i, fakultet dekanlari |
| 13. | Institutda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini o'rganish bo'yicha sotsiologik so'rovnoma o'tkazish. | 1. "O'qituvchi – talaba nigohida" nomli sotsiologik so'rovnoma o'tkazish.<br>2. "Talaba va dekan", "Talaba va prorektor", "Talaba va rektor" uchrashuvlarini o'tkazish.<br>3. Institut saytida va institutning rasmiy kanallarida onlayn so'rovnomalarni o'tkazish. | 2023-yil mart<br>2023-yil aprel<br><br>2023-yil iyun | Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i |
| 14. | Institutga xorijiy talabalarni jalb etishni yanada kuchaytirish. | 1. Institut veb-saytini yanada jozibador qilish va xorijiy (rus, ingliz.) tillarda ma'lumotlar bazasini tashkil etish.<br>2. Xorijiy davlatlar va xorijiy hamkorlar bilan OTMlarga talabalarni jalb etish bo'yicha hamkorlik aloqalarini mustahkamlash. | 2023-2024 yillarda doimiy | Institut rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i,RTT bo'limi boshlig'i |

| № | Belgilangan vazifalar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Institutda korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan kelib tushgan murojaatlar, OAV xabarlari va boshqa manbalar orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish. | | |

**Yoshlar bilan ishlash ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor** **O.Pirimov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor** **D.Quvvatov**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor** **H.Ravshanov**